

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2023

6/3-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

6/3-сан 2023

декабрь

Шолкемлестириүшилер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириү Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Маңсет АЙЫМБЕТОВ	Лобар МУХТОРОВА
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Раъно ОРИПОВА
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Фуркат РАЖАБОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Сайёра РАХМОНОВА
Дилшодхұја АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Барлықбай ПРЕНОВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Дилшода САПАРБАЕВА
Нурийдин АЧИЛОВ	Феруза САПАЕВА
Тұлкин АЛЛАЁРОВ	Зайниддин САНАҚҰЛОВ
Мариғжон АХМЕДОВ	Қажхор ТУРСУНОВ
Умида БАХАДИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Фарҳад БАБАШЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Гулноз ТУРАЕВА
Шахло БОТИРОВА	Гулмира ТОЖИБОЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Аскәр ДЖУМАШЕВ	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Дилбар ҚАРШИЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Воҳид КАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Дилбар ҚОДИРОВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Абдушукур ШОФҚОРОВ
Аскәrbай НИЯЗОВ	Дилфузә ШАББАЗОВА
Сабит НУРЖАНОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Мехри НАРБАШЕВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Улфат МАҲКАМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Уролбой МИРСАНОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Нуржан МАТЧАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Сафо МАТЧОН	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Шукурилло МАРДОНОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Шахсанам МАТУПАЕВА	Қонысбай ЙОСУПОВ



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Raximova N. Xorijiy tilni o'qitish sharoitida bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati	7
Atamuratov R. Raqamlı transformatsiya - ta'lim samaradorligining asosi	14
Norov N. Husayn Voiz Koshifyning axloqiy qarashlarida adolat kategoriysi	21
No'monxonova M. Axborot texnologiyalari va bo'lajak tilshunoslarning kommunikativ kompetensiyalari metodikasini rivojlantirishi va hozirgi holati	26
Суюнов Б.Т. Тезаурус – лингвистик тараққиёт омили	33
Shofqorov A.M. Hamid Olimjonning takrordan foydalanish mahoratiga doir	39
Fayzimatova N. Kinship terms and teknonymy	44
Nazarova R. Effectiveness of teaching through riddle	51
Nishonova Sh. The role of gestures in effective communication	56

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Tilegenov A.T. Yoshlarda milliy g'oyani shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning metod va vositalari	61
Xalikov F. Ta'lim tizimida testologik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik mazmuni	66
Rasulova G. Adabiy ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish	76
Baisov A. Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish muammolari	82
Mirsultanov I.M., Xasanov A.R. O'qituvchilik kasbida barqarorlikni shakllantirish muammosining mavjud holati	86
Jo'raev Yu.K. Pedagogik oliv ta'lim muassasalarida elektrotxnika fanini o'qitishda ta'lim usullaridan amaliy foydalanish yo'llari	90
Yo'ldosheva D. Kreativlikni rivojlantirish muammosiga doir xorijiy tadqiqotlarning retrospektiv tahlili	94
Tojiboyev J. Kreativ yondashuv asosida talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish mazmunini belgilashning pedagogik talablari	102
Siddiqov B. O'quvchilarning aksiologik kompetentligini rivojlantirish tushunchasi va tahlili	108
Mexmonaliyev Sh.N. Husayn Voiz Koshify ijodida axloqiy tarbiya masalalarining yoritilishi	113
Muminova D. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	120
Axmedov B.A. Muammoli ta'limda suqrotona yondashuv metodikasi	126
Bobomurodova L.E. Talabalarning kasbiy-metodik ijodkorligini rivojlantirish	131
Abdusattorov A., O'rinoval N. O'zbek xalq cholg'ulari orkestiri vositasida bo'lajak musiqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodlari	136
Aliyeva M. Pedagogik amaliyat jarayonida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashirish	146
Ражабов X. Ракамли таълим муҳитида бўлажак кимё ўқитувчилари ахборот-методик компетентлигини такомиллаштириш муаммоси	151
Saydullayeva A. Ta'limda gender madaniyatni rivojlantirishda ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik-psixologik ahamiyati	157
Mamayusupov J. Analistik tafakkurni rivojlantirishda pedagogning intellektual faolligi va uning o'ziga xos xususiyatlari	164
Toshaliyev D. Milliy musiqiy meros va unga o'quvchilarda aksiologik munosabati shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari	169
Shermatova Y.S. Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy metodlar	177
Yuldashev D.T., Maxammadaminova D.A. Aqli zaif o'quvchilar nutqining fonetik tomonidan buzilishi va ularni bartaraf etish yuzasidan logopedik ishlar	181
Oppoqxo'jayev X.A. Inkluyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarni o'zini -o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini rivojlantirish	189



Raxmonov A.R. Ta'lim innovatsiyalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalnish imkoniyati	193
Karomov B.K. O'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik mohiyati	199
Лұхманов Д.Б. Миллій анъаналардан фойдаланиш технологиялари асосида касбий-педагогик фаолиятни ташкил этиш муаммосининг назарий ва амалий ҳолати	207
Xalmuxamedova M.A. Talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda mehnatning roli	213
Ismoilova N.S. Talabalarda kreativ faoliyatni rivojlantirishning mavjud holati	219
Жұраев Ш.М. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларида рефлексив позицияни ривожлантиришнинг түзилиши ва ўрни ҳамда ахамияти	225
Жұраев Ш.М. Бұлажак ўқитувчиларда рефлексив позицияни ривожлантириш мезонлари ва күрсаткычлари ҳамда даражалари	233
Bekqulov Q.Sh., Barakayeva Ch .S. Darsdan tashqari vaqtarda talabalarining mustaqil ijodiy ish faoliyatini tashkil etish bosqichlari	241
Raxmanova M. Q. Individual o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilarning faolligni rivojlantirish	246
Quyliyeva O.R. Ilk katta sinf o'quvchilariga texnologiya darslarini o'qitishda kasbga yo'naltirish tamoyillarini shakllantirish masalalari	253
Ismailova D. R. Talabalarning axloqiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish mechanizmleri	259
Abdirimova I.K. Klaster modeli asosida o'quvchilar loyihalash faoliyatini shakllantirish	264
Ortiqov O.A. Marketing tadqiqotlaridagi zamonaviy yondashuvlar tahlili	269
Qurbanova M. F. Ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etish zarurati	273
Исманова М.А. Талабаларда ижодий-креативлик сифатларини ривожлантириш	277
Bekturdiyev Q.B. Ta'linda boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari	282
Наркабилова Г. К вопросу о потребности формирования цифровой грамотности студентов	286
Боймираева Д. Совершенствование механизмов организации и управления процессом формирования социальной креативности у будущих менеджеров образования	290
Юлдашева Г. Развитие профессиональной компетентности у будущих студентов педагогического ВУЗа	294
Умарова Г. Аспекты, заложенные в содержание профессиональных знаний будущих инженеров на основе интегративного подхода	300
Tashpulatov R.Kh., Saidnazarova S.F. Investigation of the quality of additionally acquired knowledge of the learning process	308
Sarsenbaev D. Pedagogical approaches in developing communicative competence	313

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Melikuzieva M. Talaba-yoshlarning ma'naviy axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u blig" asarining tarbiyaviy imkoniyatlari	324
Siddiqov I. Virtual muzeylar va ularning bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rni	330

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Jumanqo'ziyev O'. Informatika fani darsligi dasturlash tillari bo'limlari mazmuni	336
Shirinov F.Sh. Multimedia texnologiyalarini ta'lim sohasida qo'llanilishi	344
Jumanqo'ziyev O'. Umumta'lim mkatablari o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishda dasturlash tillarining o'rni	349
Sulaymanova D. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fanini o'rgatishda web-quest texnologiyasidan foydalananish	357
Yusupov M.R. Ba'zi matnlari masalalarini yechish usullari	



TA'LIM INNOVATSIYALARI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALNISH IMKONIYATI

Raxmonov A.R.

*CHDPU “Umumiy pedagogika”
kafedrasi pedagogika fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori*

Tayanch so'zlar: ta'lism innovatsiyalari, texnologik yondashuv, loyihalashtirish, loyihalashtirish metodi, ta'lism modeli, identifikasiyalangan o'quv maqsadlari, o'quv maqsadlari taksonomiysi.

Ключевые слова: образовательная инновация, технологический подход, дизайн, метод проектирования, образовательная модель, выявленные цели обучения, таксономия целей обучения.

Key words: educational innovation, technological approach, design, design method, educational model, identified learning goals, taxonomy of learning goals.

Jahon mamlakatlarida ta'lism tizimini rivojlanishi muhim e'tibor talab qilayotgan masalalrdan biri sifatida qaraladi. Shu singari mamlakatimiz ham ta'lism sohasini yuksak saviyada rivojlantirishni asosiy vazifa sifatida belgilagan. Biz ta'limga isloxaqtin hamisha jamiyatni istagiga qaratamiz. Chunki ta'lism istemolchilari tomonidan extiyoj asosida ta'lism mazmuni o'rganilib boriladi. Ta'lism tizimidagi kirtilayotgan yangi munosabatlarning bu singari o'ziga xos jihatlar an'anaviy ta'limgagidan farq qilishi kerak. O'quvchilarning ta'lism jarayonidagi mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarilishi, balki belgilangan maqsadga yo'naltirish muhim hisoblanadi. O'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish uchun ularni pedagogik faoliyatga ongli ravishda yo'naltirish va biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki qiziqishlar orqali bajariladi. O'quvchilarni fan bo'yicha o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish, shaxsning ehtiyoji va qiziqishlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqi asosida amalga oshiriladi. Bu esa pedagogik texnologiyaning texnologik yondashuvga asoslanadi. Texnologik yondashuv odatda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o'xshashligi) saralab olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan metodlar to'plami tushuniladi.



Oldindan rejashtirib qo‘yilgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalar kafolatli metodlar majmuasi tushuniladi. Agar metod bilishning yo‘lini, tadqiqot etsa yoki biror faoliyatdagи ma’lum amaliyat va nazariy bilimlar sohasini egallahni harakatlarini anglatса, usullar majmuasi sifatida tushunsak, pedagogik texnologiyaning ta’lim usuli, ma’lum ma’noda ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarasini, vositalarini, shakl va metodlarini bildiradi.

Pedagogik texnologiyani an’anaviy o‘qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko‘p. Pedagogik texnologiya an’anaviy metodikadan, avvalo, maqsadlarning aniq qo‘yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi. Pedagogik texnologiya usuli tarkibiy qismiga ta’limning umumiy maqsadlari(o‘qituvchi va o‘quvchining maqsadlari)ni ishlab chiqish, ta’lim maqsadlarini nazorat(test) topshiriqlarida o‘tkazish, maqsadga erishish usullari kiradi.

Loyihalashtirish faoliyati o‘quvchilar bilan ishlashni tashkillashtirishning eng ommabop shaklidir. Loyihalash metodi – o‘qitishning tashkillashtirilishi bo‘lib, o‘quvchilar rejashtirish va amaliy vazifalarni bajarishlari orqali loyiha ko‘rinishida bilim oladi. Loyihalashtirish metodini qo‘llash natijasida loyiha(proyekt) ko‘rinishidagi bilim o‘zlashtiriladi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib, o‘quvchilarning birgalikda ta’lim olishlari amalga oshiriladi. O‘quvchilarni hamkorlikda ta’lim olishlari, ta’lim jarayonlarini o‘quvchilar bilan loyihalashtirish zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi.

O‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish pedagogdan o‘z ustida muhim ishlashni talab etadi. Pedagog o‘zida unga yordam beruvchi tashqi imkoniyatlardan foydalanishi, ya’ni, nazariy-amaliy, o‘quv qurollari va vositalari mavjudligi haqida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Pedagog o‘zidagi mavjud ma’lumot va imkoniyatlar asosida qaralayotgan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ma’lumotlar hamda ilg‘or o‘qitish uslublarini ko‘zlagan maqsadga yo‘naltirish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Pedagogda shakllangan bilimlar, ko‘nikma va malakalar, o‘qitish vositalaridan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar imkoniyatlarini maqsadga muvofiq yo‘naltira olish qobiliyatlarini rivojlannishi, u davlat ta’lim standartlari asosida ta’lim oluvchiga aniq maqsadini belgilab beradi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogik texnologiyalarni qo‘llash rejasini ishlab chiqishga, ya’ni vazifalarini belgilab olishga olib keladi. Belgilangan maqsad va vazifalarni e’tiborga olgan holda ta’limning harakatchan modeli yaratiladi. Modelni ishlab chiqish asosan tizimli yondashuv uslubi, maqsadlar tizimini yaratish va unga erishish ketma-



ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ta’lim modelini yaratish zamonaviy ta’lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir.

“T’alim yuzasidan qonuniy hujjatlar” pedagogik raqobatbardosh mutahassislarni tayyorlash yuzasidan zamonaviy talablar majmuini belgilab beradi. Bir-biriga bog’liq bo’lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy talablar quyidagilardan iborat, ya’ni:

- Pedagogning ta’lim berish mahorati;
- Pedagogning tarbiyalay olish mahorati;
- ta’lim-tarbiya jarayonida inson omilini ta’minlovchi shaxs fazilati;
- ta’lim oluvchilarining bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Bugungi kunda O’zbekistonda jahon ta’lim maydoniga kirishga yo’naltirilgan yangi ta’lim tizimi qaror topmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtida pedagogik o‘quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo’lmoqda. Ta’limdagi yondashuvlar tarkibi o‘zgarmoqda va boshqacha munosabatlar, Pedagogik mintalitetlar o‘rnatilmoqda. Ta’lim tizimi yangi axborotlar bilan ishslash qobiliyatni ijodiy yechimining ta’lim dasturini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Ta’lim – pedagogik jarayonning muhim tarkibiu qismi bo‘lib, o‘quvchi-talaba bilan o‘qituvchi (pedagog) ning shaxsga yo’naltirilgan o‘zaro munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy bilimga teng bo’lgan pedagogik texnologiyalarning tashkil topishida fanning roli ortib bormoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtayı nazardan takomillashuvining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

- o‘quvchining yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o‘tishi, ya’ni
- o‘zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o‘tishi;
- o‘rtacha o‘quvchiga yo’naltirilganlikdan o‘qitishning tabaqalashgan va individuallashtirilgan dasturlariga o‘tish;
- o‘quvchining tashqi motivasiyasidan ichki ma’naviy tartibga o‘tish.

Ta’limda zamonaviy didaktika va ta’lim tarkiblarining samaradorligini oshirish, yangi g’oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliy asoslanishiga o’tilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o‘qitish texnologiyalari o‘rtasida bog’liqlik, amaliyotda davlat ta’lim tizimining yangi shakllarining aprobasiyasi, hozirgi zamon sharoitida o‘tmishning pedagogik tizimlarini qo’llash muhim hisoblanadi. Pedagogik texnologiya paydo bo’lgunga qadar boshqa masalalar qatorida murakkab qurilma va jarayonlar



o‘rganiladigan ta’lim tizimi doirasida aynan ta’lim jarayonini yetarlicha samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmadi. Bu bo‘sliqni pedagogik texnologiya pedagogning loyihalashtirilgan o‘quv jarayoniga ijodiy yondashuvi uchun keng o‘rin qoldirgan holda to‘ldiradi. Pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o‘quv maqsadlariga so‘zsiz erishish o‘quv jarayonida loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzaklikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko‘rsatmali sxemada o‘z ifodasini topadi.

Maqsadga yo‘naltirilganlik, jarayon natijalarining tashxisli tekshiruvi o‘quv jarayonining barcha qirralarini qayta ishlab chiqish davriga mujassamlashtirish imkonini yaratadi. U asosan o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- ta’limda umumiy maqsadning qo‘yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o‘tish;
- o‘quvchi-talabalarning bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;
- bajariladigan o‘quv ishlari majmuasi (bu bosqichda teskari bog‘lanish asosida zudlik bilan ta’lim jarayoniga tuzatish kiritish bo‘lishi lozim); – natijani baholash.

O‘quv maqsadlarining to‘liq standartlashtirish me’yori quyidagicha bo‘lishi mumkin: a) yuqori, ammo mutlaq emas; b) mutlaq.

Birinchidan jarayon maqsadning murakkabligi tufayli uni to‘liq kuzatuvchan xatti-harakatlar turiga aylantirish imkonini bermaydi, davr to‘laligicha qayta ishlab chiqilmaydi. Ikkinchidan konveyerli jarayon bo‘lgan ta’limning reproduktiv turi bilan ish yuritiladi.

O‘quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihatı – o‘quv jarayonining so‘nggi natijalariga yo‘naltirilganligini kuzatish mumkin.

Umumiyo ko‘rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- identifikasiyalangan o‘quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- o‘quv maqsadlari taksonomiyasi;
- o‘quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullari;
- erishilgan o‘quv maqsadlarini baholash.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo‘li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab oladi. O‘qituvchi o‘z oldiga o‘quvchilar o‘quv materialining mazmunini tushunib, o‘zlashtirib, ma’lum bilimlarni egallab, amaliyotda qo‘llashga o‘rgansin degan maqsadni qo‘yadi. Pedagogik maqsadga



erishganlik yoki erishmaganlikni bilishning aniq vositalari bo‘lgandagina, o‘qituvchi o‘zining mehnati samarali ekanligiga va tanlagan metodlari maqsadga muvofiqligiga yoki aksincha, samarasiz ekanligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

M.V.Klarin fikri bo‘yicha o‘qituvchilar tomonidan maqsadlarni belgilashning o‘ziga xos usullari quyidagicha:

1. O‘quv materialining rejasidan kelib chiqib, maqsadni belgilash.
2. Maqsadni o‘qituvchi faoliyati orqali aniqlash.
3. O‘quvchining intellektual, emotsiional, shaxsiy rivojlanish ichki jarayonlari vaqonuniyatlari orqali o‘quv maqsadini qo‘yish.

O‘qitishning maqsadi ta’lim mazmuni, o‘qituvchining yoki o‘quvchining faoliyati orqali belgilash ta’limda kutilayotgan natijalar haqida aniq taassurotga ega bo‘lishga imkon bermaydi.

Umuman olganda, ta’lim jarayonida vazifalarni o‘lchash, aniqlash, o‘qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo‘lish uchun har bir maqsadga erishish mezonini bilish kerak, ya’ni ta’lim maqsadi shunday qo‘yilishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo‘lsin. Mashg‘ulot mazmuni deganda, o‘quvchida o‘qitish jarayonida egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi hamda xarakteri tushuniladi. Mashg‘ulot mazmunini loyihalashga o’tganda pedagogik tizimning birinchi elementi – maqsad bilan o‘zaro farqlanadigan tomonlarini hisobga olish kerak bo‘ladi.

Pedagogik tizimning maqsadini belgilashda, uning o‘quvchilar o‘rganishi lozim bo‘lgan ro‘yxati keltiriladi va ular mashg‘ulot maqsadini aniqlash uchun xizmat qiladi. Mashg‘ulot mazmunini saralashda ma’lumotlarning umumiyligi hajmidan asosiy qismi ularga yetkaziladi. Dasturda mashg‘ulot materiallari tushunarli tarzda berilishi muhim. Buning uchun u ma’lum murakkablik darajasida bayon etiladi. Shu boisdan didaktikada “oddiydan murakkablikka” qoidasi mavjud. Bu qoidaga mashg‘ulot mazmunini izchil va ketma-ket yoritishda rioya qilinadi.

Dastur o‘qitish darajasi ilmiy-nazariy va siyosiy jihatdan qanday bo‘lish kerakligini, o‘quvchilarda dunyoqarashning qaysi qirralarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatsa, darslik bu muammolarni aniq tushuntirib beradi. Mashg‘ulot mazmuni ma’lum qonuniyatlar asosida didaktik tayyorlanmas ekan, uni belgilagan vaqt davomida egallash murakkab kechadi, ba’zan bu mazmun o‘quvchilarning o‘zlashtirish qobiliyatiga mos kelmay qoladi. Shuning uchun ularning bilimlarni egallahini osonlashtirish maqsadida mashg‘ulot mazmuniga nimadir kiritish yoki pedagog to‘plagan boshqa bir usullarni taklif etish kerak bo‘ladi.



Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T: "O'zbekiston" 2017 yil 31b
2. Movlanova R.A, Voxidov N.H Ijtimoiy pedagogika "Istiqlol nashriyoti" 2009 yil 25-26b
3. A.R.Raxmonov "Boshlang'ich ta'lim jarayoniga innovatsiyon yondashuv" Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari "O'qituvchi innovatsiyon faoliyatining asosiy xususiyatlari" 66b
4. A.R.Raxmonov "Zamonoviy o'quv mashg'uloti va ta'limming o'ziga xos imkoniyatlari" O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali 2020 yil 51b
5. Gippenreiter yu. B. bolalarga nima qilish kerak ... savol va javoblar / Hippenreiter yu. B. – M.: Ed. Ast, 2015. – 74 b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada o'quvchi-talabalarning ta'lim jarayonidagi mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish, belgilangan maqsadga erishish muhim ekanligi, o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish uchun qanday ta'lim usullaridan foydalanish zaruriyatlar ko'rsatib o'tildi.

РЕЗЮМЕ

В статье показана важность самостоятельности обучающихся в образовательном процессе и управлении учебной деятельностью, важность достижения поставленной цели, необходимость использования образовательных методов для организации учебной деятельности во взаимодействии.

SUMMARY

The article shows the importance of student independence in the educational process and management of educational activities, the importance of achieving the set goal, the need to use educational methods to organize educational activities in interaction.